

# TOSHKENT HAQIQATI

HAQSEVAR ONA YURT, MANGU BO'L OBOD!

@haqiqatonline\_24

Haqiqat online

haqiqatonline\_

Viloyat  
ijtimoiy-siyosiy  
gazetasi

1928-yil 11-dekabrda  
asos solingan

2025-yil 16-iyul / CHORSHANBA / № 52 (13813)

Ўрта Чирчиқ туманидаги "Ўртабўз" маҳалласида помидор етиштириш аҳолининг асосий бандлиги ва даромад манбасига айланган. Бу ерда деярли ҳар бир хонадон томорқасида помидор парваришлаб, нафақат оилавий эҳтиёжини қондиради, балки ортиқчасини бозорга чиқариб, иқтисодий фойда ҳам кўради. Маҳалланинг иқлим шароити, сув таъминоти помидор етиштириш учун қулай. Аҳолининг 70 фоизи помидор, қолгани бодринг, булғор қалампери ва турли карам навларини етиштиради.

## РЎЗБОР БУТ, ДАСТУРХОН ТЎКИН



### ▼ Бир маҳалла – бир маҳсулот

Маълумки, помидор парваришлаш сабр, меҳнат ва тажриба талаб қилади. Бу борада маҳаллада Муҳиддин ота Худойбердиевнинг тажрибаси катта. У киши кўп йиллардан буён очик далада помидордан мўл ҳосил олиб, маҳалладошларига ўрнак бўлиб келмоқда. Бугунги кунда кўплаб ёшлар ҳам айнан Муҳиддин отанинг тажрибасидан илҳом олиб, томорқачилик билан шуғулланишга киришган.

Муҳиддин отанинг сўзларига кўра,

яхши ҳосилнинг гарови – тўғри тайёрланган ер. Помидор учун юмшоқ, ҳаводор ва унумдор туپроқ энг мақбул ҳисобланади. Кузда ерни чуқур ҳайдаб, чириган гўнг ёки компост солиш лозим. Баҳор келгач, яна енгилроқ ҳайдаш ёки юмшатиш ишлари бажарилади. Апрельнинг охири ёки май ойи бошларида тайёр кўчатлар экилади. Бунда ҳар бир туپ орасида 60-70 см., қаторлар орасида эса 80-90 см. масофа қолдирилади. Яхши парвариш қилинса узоғи 40 кунда ҳосил пишиб етилади. Бу мавсумда 20 сотих ерга 8 мингта кўчат экилган ва улар ҳозир шиғил ҳосилга кирди.

2

### ▼ Hamkorlik

## UNIVERSITETDA YANGI BINO OCHILDI

Toshkent davlat agrar universitetida Xitoyning Shimoliy-g'arbiy qishloq va o'rmon xo'jaligi universiteti bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari uchun yangi o'quv binosi foydalanishga topshirildi.



Ushbu zamonaviy inshoot ikki davlat o'rtasidagi strategik hamkorlikning amaldagi namunasi sifatida ta'lim sohasidagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Bungi kunda global muammolar – ozloq-ovqat xavfsizligi, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslar tanqisligi tufayli agrar sohada yetuk mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ana shunday sharoitda agrar ta'limga oid xalqaro dasturlar orqali malakali, ilg'or fikrlaydigan va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

Yangi binoning tantanali ochilish marosimida ikki universitet rektorlari – Narzullo Oblomurodov va Vu Pute ishtirok etib, mazkur loyiha kelajak mutaxassislarini xalqaro mezonlarga mos tarzda tayyorlashda muhim o'rin tutadigan maskan bo'lishini ta'kidlashdi. Yangi binoda xalqaro standartlarga mos jihozlangan laboratoriyalar, raqamli ta'lim muhitiga yaratilgan infratuzilma, multimedia vositalari bilan ta'minlangan o'quv xonalari faoliyat yuritadi. Darslar xalqaro standartlar asosida olib boriladi, bitiruvchilar esa O'zbekiston va Xitoy diplomlarini qo'lga kiritadilar.

Bugungi kunda Toshkent davlat agrar universiteti xalqaro hamkorlik bo'yicha faol faoliyat yuritib, 2018 yildan buyon AQSH, Rossiya, Turkiya, Xitoy, Polsha, Litva, Vengriya va Belorussiya kabi qator davlatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirmoqda. (Davomi 2-sahifada) ►

ro standartlarga mos jihozlangan laboratoriyalar, raqamli ta'lim muhitiga yaratilgan infratuzilma, multimedia vositalari bilan ta'minlangan o'quv xonalari faoliyat yuritadi. Darslar xalqaro standartlar asosida olib boriladi, bitiruvchilar esa O'zbekiston va Xitoy diplomlarini qo'lga kiritadilar.



Bugungi kunda Toshkent davlat agrar universiteti xalqaro hamkorlik bo'yicha faol faoliyat yuritib, 2018 yildan buyon AQSH, Rossiya, Turkiya, Xitoy, Polsha, Litva, Vengriya va Belorussiya kabi qator davlatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirmoqda. (Davomi 2-sahifada) ►

### ▼ Bugunning yoshlari

## Liverpulda bir qiz yashaydi...

Hayot yo'lida yorug' orzu-umidlarini o'zida, qilayotgan ishida, yashashida yorqin aks ettirgan insonlar borki, ular garchi o'zi yosh bo'lsa-da, tengdoshlariga o'rnak bo'la oladi. Ularning turmush tarzi – zamon, vaqt yo manzil tanlamaydi. Ular uchun Vatan xaritada chiziqlar bilan emas, yurakning qon tomirlari bilan chizilgandir.

Atrofga teranroq nazar solsang, bundaylarni ko'rasan. Toshlar orasidan inju topilganidek sovuqqon inglizlar orasidan ham istarali yurtdoshing topiladi.

78-"KANN" kinofestivalidan lavhalar tomosha qillar ekansan, modalar olamini kuzata boshlaysan. O'zbek qizi qizil yo'lakda quyoshday porlab kelayotgan bo'ladi. O'zbekistonning eng so'nggi rusumdagi libosini dunyoga namoyish qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bu qiz – Jasmına Ibrohimova.

2



## Кумобга ошно қалблар

▼ Долзарб 90 кун

Хабарингиз бор, Ўзбекистон Республикаси Президентининг ташаббуси билан 1 июндан 30 августгача мактаб ўқувчилари ва уюлмаган ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ўтказиш, уларни соғломлаштириш ва ҳар томонлама ривожлантириш мақсадида "Долзарб 90 кун" лойиҳаси йўлга қўйилган. Ушбу лойиҳа доира-сида Тошкент вилояти мактаб-гача ва мактаб таълими тизими-даги муассасаларда ҳам турли маърифий тадбирлар ташкил этилмоқда.

4



### ▼ Кун тартиби



## ВИЛОЯТ КЕНГАШИНИНГ СЕССИЯСИ

Нурафшон шаҳрида Халқ депутатлари вилоят Кенгаши-нинг навбатдаги сессияси бўлиб ўтди. Уни кенгаш раиси С.Файzieва олиб борди.

Депутатлар кун тартибига муво-фик, ўзбошимчалик билан эгаллаб олинган ер участкалари ва уларда қурилган бино-иншоотларга эгаликни эътироф этиш, маҳаллий бюджетнинг қўшимча даромадларидан фойдаланиш, вилоят ички йўлларини таъмирлаш ва инфратузилмани яхшилаш бўйича белгиланган параметрларга ўзгартишлар киритиш масалаларини ҳамда кичик ва микро ГЭС лойиҳаларини амалга ошириш учун Жаҳон бан-кидан маблағ ажратиш концепцияси-нинг вилоятга тегишли қисмини қизғин муҳокама қилдилар.

Шунингдек, вилоятда хусусийлашти-риш дастури, Чиноз, Зангиота ва Ўрта Чирчиқ туманларида "Зарбдор тажри-баси" асосида саноат, хизмат кўрсатиш ҳамда қишлоқ хўжалигига оид драйвер лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва ҳаётга татбиқ этиш, бир қатор туманларнинг шаҳарсозлик лойиҳаларини тасдиқлаш масалалари ҳам кўриб чиқилди.

Кун тартибидagi масалалар бўйи-ча тегишли қарорлар қабул қилинди.

Сессия ишида вилоят ҳокими З.Мирзаев видеоконференцалоқа ор-қали иштирок этди.

Ўз мухбиримиз



## Viloyat bo'ylab

**TOSHKENT viloyatida** mahalla yoshlari o'rtasida an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan "DXX kubogi" futbol musobaqasining final bosqichida Bekobod tumanining "Yangiyo'l" va O'rta Chirchiq tumanining "Jang'abay" jamoalari bellashishdi. Olmalik shahrining OKMK stadionida bo'lib o'tgan bahsda "Yangiyo'l" jamoasi o'z raqibini 1:0 hisobida mag'lub etib, "DXX kubogi" viloyat bosqichi g'olibi bo'ldi.

**OHANGARON shahar** Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tomonidan maktab hamda kollej bitiruvchilari, ishsiz yoshlar bandligini ta'minlash maqsadida mehnat yarmarkasi tashkil etildi. Unda shahardagi korxona-tashkilotlar bo'sh ish o'rinlari bilan qatnashishdi.

**BEKOBOD tumani** hokimi Z. Nizomiddinov hamda tuman soliq bo'limi rahbarining tadbirkorlar bilan navbatdagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda tuman markazidan do'kon qurish, xususiy maktab uchun joy ajratish, kredit olish, tikuvchilik fabrikasiga ishchi kuchi yetkazib berish uchun aholi va bandlik markazi bilan shartnoma tuzish kabi murojaatlar ko'rib chiqildi.

**QIBRAY tumanining** "Ko'prikboshi", "Baytqo'rg'on", "Istiqlol", "Navbahor" mahallalari yoshlari "Dolzab 90 kun" loyihasi doirasida Toshkent shahridagi muzeylarga sayohatga borishdi. Sayohatda yigit-qizlar muzeylardagi eksponatlarning tarixi bilan yaqindan tanishib, qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

**OLMALIQ shahar** hokimligida "Mustahkam oila — yurt tayanchi" mavzusida targ'ibot tadbiri bo'lib o'tdi. Uchrashuvga nizoli holatdagi bir nechta oilalar taklif qilinib, alohida suhbatlar o'tkazildi. Natijada ajrim yoqasidagi to'rtta oila yarashtirildi.

**OHANGARON tumani** hokimi D.Madirimov "Go'shsoy" mahallasida bo'lib, 26-umumta'lim maktabining yangi o'quv binosi qurilishi bilan tanishdi. Ayni damda binoning ikkinchi qavatiga g'isht terish davom etmoqda. Jarayonni ko'zdan kechirgan tuman hokimi mas'ullarga tegishli topshiriqlar berdi.

# ҲАРАКАТ ҚИЛГАН ХИРМОН УЯДИ

Маълумки, бу йилги об-ҳаво ҳароратининг юқори келиши инobatга олиниб, вилоят ҳокими томонидан 2025 йил ҳосили учун ғўза парваришида 5 июлдан 25 августгача “Долзарб 50 кун” эълон қилинди. Шунга кўра қишлоқ хўжалигига масъул раҳбарларга амалга ошириладиган асосий агро-техник тадбирлар тўғрисида кечиктириб бўлмайдиган вазифалар белгилаб берилди.

## ▼ Долзарб 50 кун

Тадбир доирасида Оққўрғон туманида жорий йил пахта ҳосили учун ғўза майдонларида агро-техник тадбирларнинг бориши юзасидан пресс-тур ўтказилди. Унда ишчи гуруҳга аъзо масъуллар ҳамда журналистлар томонидан далалар кўздан кечирилди.

Қайд этилганидек, тумандаги фермерлар ва агрономлар томонидан ғўза кўчатлари-га агро-техник ишлов беришга алоҳида эътибор қаратилган.

Мутахассисларнинг таъкидлашича, бу йилги сув танқис-



лиги ва юқори ҳарорат ҳашаротларнинг кўпайишига қулай шароит яратиб, ғўзага жиддий



зарар етказишни бошлади.

Бунинг олдини олиш мақсадида Тошкент вилояти

Ўсимликлар карантини ва химияси бошқармаси ғўза зараркунандаси ва касал-

ликлари энг кўп тарқалиши мумкин бўлган майдонлар харитасини ишлаб чиқиб, масъулларга етказиш чораларини кўрмоқда. Карантин инспекторлари ғўза майдонларининг ҳар 2 гектарига 1 донадан феромон тутқич, гектарига 4-5 донадан махсус ачитқиларни ўрнатиш, 1-1,5 минг донадан оптинкўз, 2 минг донадан габробралон ҳамда 2-3 граммдан трихोगрамма чиқарилишини таъминлашга масъул этиб белгиланди.

Айниқса, кўсак курти ва ўргимчаккана аниқланган майдонларга кимёвий препаратлар қўллашни ман этиш, зарур ҳолатларда фақатгина вилоят ишчи гуруҳлар руҳсати билан сепиш тавсия этилмоқда.

Пресс-тур давомида журналистлар мазкур жараёнлар ҳақида ўзларини қизиқтирган саволларга жавоб олишди.

Абдулазиз МУСАЕВ



## UNIVERSITETDA YANGI BINO OCHILDI

So'nggi besh yilda bu yerda tahsil olgan 500 dan ziyod bakalavr va 40 dan ortiq magistr talabalar xalqaro diplom egasiga aylanishdi. Bu raqamlar ta'lim sifatining oshib borishi, mehnat bozorida yetuk, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlarga bo'lgan talabning ortganidan dalolat beradi.

Universitetda foydalanishga topshirilgan mazkur bino O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 6 iyuldagi qarori asosida yo'lga qo'yilgan qo'shma ta'lim dasturlarining yana bir amaliy namunasi bo'ldi. Ushbu dasturlar talabalarga xorijiy oliygohlarda ma'lum muddat ta'lim olish, ilmiy-tadqiqot loyihalarida ishtirok etish, xalqaro professorlardan bilim olish imkonini yaratib beradi. Qisqasi, ikki tomonlama diplom – bu ikki karra imkoniyat emas, balki O'zbekistonda ta'lim tizimining globalashuviga ochiqchilikni, mamlakat agrar sohasini mutaxassislar bilan ta'minlashdagi yangicha yondashuvini aks ettiradi.

Yangi binoda ta'lim oluvchi talabalar nafaqat zamonaviy sharoitda bilim oladilar, balki agronomiya, agrobiznes, oziq-ovqat texnologiyasi kabi sohalarida chuqur amaliy tayyorlik ko'rishlari ham mumkin bo'ladi. Bu esa, ertangi kunning raqobatbardosh mutaxassislarini yetishtira oladigan ilg'or ta'lim maskanini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yangi loyihaning ishgа tushirilishi ortidan xalqaro professor-o'qituvchilar va olimlarni jalb etish imkoniyatlari kengayadi.

Muxtasar aytganda, yangi o'quv binosi O'zbekiston ta'lim sohasidagi yangilanish va xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan islohotlar yo'lidagi muhim qadamlardan biridir. Universitet hududida qad rostlagan ushbu bino ikki davlat oliygohlari o'rtasidagi do'stona munosabatlar, madaniy aloqalar, ta'limdagi innovatsion yondashuvlar va ilm-fanga qilingan investitsiyaning mustahkam ifodasi sifatida tarixga kirdi.

Zarnigor SODIQOVA,  
TDAU matbuot kotibi

## РЎЗҒОР БУТ, ДАСТУРХОН ТЎКИН

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)



— Кўчатлар булутли кунда ёки кечкурун экилади, бу уларнинг яхши илдири отишига ёрдам беради, — дейди Муҳиддин ота. — Ҳар бир кўчатнинг тагига оз миқдорда

кул ёки гўнг солиб экилади. Дастлабки кунларда суғоришга алоҳида эътибор қаратиш муҳим — ер нам бўлиши, лекин суви туриб қолмаслиги керак. Помидорни ортиқча суғориш мумкин эмас, айниқса, гуллаш даврида. Ўсимлик яхши ўсиши учун ҳар 20-25 кунда фосфор ва калийли ўғитлар билан озиклантирилади. Органик ўғитлар, айниқса, гўнг эритмаси ўсимлик кучини оширади.

Помидор зараркунанда ва касалликларга тез чалинадиган ўсимлик бўлгани сабабли, ҳар 10-15 кунда профилактика чоралари кўрилар экан. Бирор касаллик кузатилса, тезда махсус биологик воситалардан фойдала-



ниб, йўқ қилишади. Муҳиддин ака 1 тоннага яқин биринчи ҳосилни июль ойининг бошида териб олибди. Ҳозирда кунора 500 килограммга яқин помидор терилмоқда. Доимий харидорлар махсуслотни ўзлари келиб олиб кетишар экан.

Муҳиддин отанинг хонадонидagi 20 сотих майдон ҳам бўш турмайди. Айни пайтда у ерда гулкарам, брокколи ва бақлажон етилиб турибди. Бу ишларга турмуш ўртоғи Зулайхо ая бош-қош.

Зулайхо аянинг айтишича, бу йил бақлажон ҳосили ҳам мул бўлди. Уни ҳам пешма-пеш бозорга чиқариб, яхши даромад олишмоқда.

Худойбердиевлар оиласининг тажрибаси шуни кўрсатадики, ердан ва томорқадан оқилона фойдаланиш, рўзгорга барака киритиш билан бирга, аҳоли дастурхонини ҳам тўкин қилади.

**НОЗИМА РАСУЛОВА,**  
“Тошкент ҳақиқати” муҳбири  
Жалолиддин ЭСОНОВ  
олган суратлар

U shunday deydi: “Egnimda – “L’Amoire Couture” – o‘zbek brendiga mansub hayratomuz libos. Bu lahazar shunchaki modalar ko‘rgazmasi emas – bu madaniyat, faxr, orzularning ro‘yobga chiqishidir. Bu lahazar unutilmas his-tuyg‘ular jilosi. Meni chinakam quvonchga to‘ldirgan, baxtiyor qilgan narsa shuki – tug‘ilib o‘sgan yurtimni dunyoga tanitish, O‘zbekistonning “iste‘dodi”, go‘zalligi va kuchini butun dunyoga namoyish qilish imkoniyatiga ega bo‘ldim...”

ni ochib, mamlakatimizga yangilik olib kirgan inson qiyofasida gavdalandi. Har qanday yangilik boshida qadrlanmaydi... Unda ham shunday bo‘ldi. Deyarli hech kim uni qadrlamasdi. Hamma qo‘lini unga bigiz qilardi. Ammo u hech nimaga e‘tibor bermay, o‘z yo‘lida davom etdi. Obunachilari soni kundan-kun ko‘payib, ikki yuzi ellik mingtaga yetgach, uning shaxsiy bloglari xakerlar hujumiga uchradi.

U shunday deydi: “Xatolar saboq olish uchun...”

sehrlidir. Barchasini yozib boring – g‘oyalar, istaklar, rejalar. Faqatgina oq qog‘oz barchasini eslab qolishga qodir. So‘ng yozganlarinigiz orqali maqsadga bosqichma-bosqich intiling...”

Skywin startapi yosh tadbirkor qizning kelajagiga poydevor bo‘ldi. SHHTga a‘zo davlatlar va Yoshlar kengashining doirasida dunyoga tanikli o‘zbek rassomi, qizning katta otasi Lekim Ibrohimovning Markaziy Osiyodagi ilk virtual galereyasi taqdim etildi. Bu loyiha

Xalqaro banklar va iqtisod institutlarining hisob-kitoblariga ko‘ra keyingi ikki-uch yilda O‘zbekiston iqtisodiyotida 5,7 foizgacha o‘shish qayd etilgan. Bu o‘shishda esa shu murg‘ak qizning ham zig‘irdek his-sasi bor demak. Bu Vatan menga nima berdi deb emas, men Vatanga nima berdim, deb yashashning kichik bir ko‘rinishi. Bu minbarlar-da “Men Vatanni yaxshi ko‘raman” deb baqirish emas, bu chin ma‘noda vatanparvarlik.

Gapni blogerlikdan boshlagan-

2025 yil may oyida har yili o‘tkaziladigan Kann kinofestivaliga “Yilning eng yaxshi blogeri” sifatida O‘zbekistondan Jasmina taklif qilindi. Festivalda ishtirok etgan Jasmina O‘zbekiston brendi “L’Amoire Couture” moda libosini kiyib, dunyoga namoyish qildi. Bu ham dunyo sahnasida o‘zbekning bir aytar so‘zi edi.

U shunday deydi: “Men o‘zimni izladim va topdim...”

Jasmina bugungi kunda O‘zbekiston yoshlari uchun na-

di. Uning shijoatli ishlari dunyoning mashhur nashrlarida jumladan “Forbes”, “Lazin UK”, “Bizness insider” kabi jurnallarda chop etildi.

Jasmina startapdagi ulushini sotib, o‘z loyihasi doirasida reklama biznesiga kirishdi. Boshlang‘ich kapitali oltmish besh ming dollar. Yuz dollar bilan oltmish besh ming dollar orasida farq katta, bu tinimsiz mehnat degani. Dunyoni sharqona idrok etib, Angliya aholisining dunyo-qarashini tushunish va 3D formatda sharqona reklama bilan ularning bozoriga kirib borish uchun nafaqat qo‘rqmaslik, nafaqat yoshlik, nafaqat yurak, shu bilan birga inglizlar qarashidan balandroq nazar kerak. Britaniya reklama bozorining keskin raqobati bu qizni cho‘chitmad. Aksinch, kurashga qiziqitirdi.

Tarixdan ma‘lumki, London doim yuqori darajadagi raqobatni xohlaydi. London bozorida faqatgina baquvvat salohiyatga ega tadbirkorlar yashab qola oladi. Barchasini to‘liq anglagan Jasmina Angliyaga ko‘chib o‘tib, Liverpool universitetida marketologiya bo‘yicha olgan bilimlarini amalda qo‘llay boshladi. Bozorni tahlil qildi, yangiliklarni betinim o‘rgandi. U “Coca-Cola”, “Alpen Gold”, “Freedom Finance Broker” kabi yirik kompaniyalar bilan bitimlar tuza oldi.

U yana shunday deydi: “O‘zbekistonga kelganimda sog‘inib tanovul qiladigan taom – palov...”

Bu so‘zi esa Vatan sog‘inchining bir ko‘rinishi. Yana xayoldan Boburning so‘zlari o‘tadi: “Qovun pishig‘ida poliz boshida qovun sotoq rasm emas. Andijonning noshvotidan yaxshiroq noshvoti bo‘lmas...”

Talant TOLERANT

## Liverpulda bir qiz yashaydi...

Bu men uchun katta sharafl!”

U qayerda bo‘lmasin, qay til-da so‘zlamasin, qanday libosda ko‘rinmasin – asli o‘zbekistonlikdir, Toshkent qizidir. Jasmina Ibrohimova buni yaxshi biladi, his qiladi, teran angelaydi.

“YAMAROTTI” brendining asoschisi Jasmina Ibrohimova 2004 yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Bunday umidli yoshlarni ko‘rib, xayolingdan Boburning so‘zlari o‘tadi: “Tangri talonining inoyati... bilan seshanba kuni, ramazon oyining beshinchisida, sakkiz yuz to‘qson to‘qizinchi yili Farg‘ona viloyatiga o‘n ikki yoshda podshoh bo‘ldim...” Shunday! Bu turkiy elda, bu qadim Vatanda hali toza qonlar bor, dunyoga o‘z so‘zini ayta oladiganlar bor.

Hali blogerlikdan ko‘plar bexabar payti, hamma ham smartfonga ega emas payti... O‘n yillar oldin, Jasmina o‘n ikki yoshida ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy blogi-  
(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

Tinib-tinchimas Jasmina yangi loyihaga qo‘l urdi. O‘zining Skywin startapi bilan mahalliy bozorga kirdi. Dastlabki kapitali atigi 100 dollar edi. Bu IT sohasida O‘zbekistonning raqamli muzeyini yaratish loyihasi edi. U buni yaratdi. Birinchi qilgan ishi katta otasi chizgan suratlarini NFTga aylantirib (o‘sha payti eng ilg‘ori shu dastur) muzey tashkil qildi. Maqsadi – O‘zbekistonga sarmoya kiritish edi. Chet elliklar ham ko‘zoynak taqib, bu muzey ichida yura boshladi. IT muzeyda sayr etishdi. Jasmina va uning kichik jamoasi birinchilardan bo‘lib bu ishni uddaladi. Yo‘l xaritasiga tushgan bu va bundan tashqari B2B bir nechta loyihalari Prezidentimizga ham yoqdi, u nazarga tushdi. Yoshlar agentligi grant ajratdi. O‘shanda Jasmina 16 yoshda edi.

Qahramonimiz shunday deydi: “Har tun kelajagingizni tasavvur qiling, faqatgina orzuga bog‘lanib qolmang, uni tasavvur qiling. Bu

biznes vakillarida ham qiziqish uyg‘otdi. Ular o‘z brendlariga virtual ko‘rgazma zalini ishlab chiqish uchun Jasminaning startapi-ga murojaat qila boshladi.

Yoshlarga xos bo‘lgan qarorlar qabul qilish tezligi, tafsilotlarga e‘tibor, dadillik, qo‘rqmaslik, toshib turgan qalb bu qizni tezda yangi pillapoyalarga olib chiqdi – reklama sohasidagi yirik kompaniyalar bilan hamkorlik, o‘zining investitsiya xurjunini yaratdi.

Bu loyiha O‘zbekistonga yangi investorlar topishda yaxshi ko‘makchi. Ayni damda Jasmina Buyuk Britaniyada yangi tadbirkorlar bilan shartnomalar tuzmoqda...

Nima uchun Buyuk Britaniyada? Chunki u bugungi kunda Liverpoolning nufuzli universitetida talaba va “YAMAROTTI” brendini o‘sha yerda yuritib boshladi.

U shunday deydi: “Mening maqsadim bu reklama afsonasi. Bu yerda ham, O‘zbekistonda ham. Buni Britaniyadan boshladim...”



dik. Jasmina Ibrohimova joriy yilda blogerlarning Bosh qarorgohi Monakoda joylashgan WIBA Jahon blogerlar assosiasiyaga a‘zo bo‘ldi.

faqat bilim olishda, balki cho‘chima-dan katta loyihalarni amalga oshirishda o‘rnak bo‘la oladigan shaxsni o‘zida yaratdi. U o‘zini topdi. U dunyo bo‘yicha e’tirof etil-

## ▼ Бизга ёздилар

**Ўтган асрнинг сўнги чораги бошланган дамлар эди. Ҳали ўттизга ҳам тўлиб-тўлмаган Қурбоной ҳаётнинг бе-шафқат синовига дуч келди: балоғатга етмаган тўрт на-фар фарзанди билан бева қолди. Кўз очиб кўргани, суян-гани, турмуш ўртоғи Юсуфназар узоқ йиллик хасталикдан сўн бу ёруғ оламни тарк этди.**

Қурбоной колхозда оддийгина ишчи бўлиб ишларди. Юсуфназар эса, ўша ҳўжаликда тракторчи эди. Оила тирикчилиги дала билан эди. Рўзгорининг горини тўлдирман, фарзандларим ҳеч кимдан кам

ичига сиғмаган экан. Қурбон ҳайи-ти арафасида дунёга келгани учун яхши ниятлар билан унга “Қур-боной” деб исм қўйган.

Ўша вақтларда аҳолининг ижтимоий-иқтисодий аҳволи анча

лан балчиқли зах ариқда ишлаёт-ган колхозчилар арзимаган меҳнат ҳақи олишарди. Йил бўйи ишлаб, йил охирида ҳисоб-китоб қилин-ганда, бир йиллик меҳнати эвазига атиги минг рублдан нари-бери иш ҳақи чиқарди.

Қурбоной Юсуфназар билан ана шу зовур кавлаш ишлари-да танишиб қолади. Икки оила бир-бирига ҳар жиҳатдан мос кел-гач, куда-андачилик ришталарини боғлашади.

Орадан кунлар, ойлар ўтиб, Қурбоной биринчи ўғил фар-зандини дунёга келтиради. Унга Фарход деб исм қўйишади. Қур-боной жажжи чақалоқни бешикка

умрингни бекор ўтказасан. Ундан кўра, ўқигин, университетларга кир, сёндан умидим катта, болам”, дея маспахат берди.

— Шунча йил колхозда ишлаб чарчадингиз, сизнинг қўлингиз-дан ишингизни олсам дейман-да, она.

— Мени кўявер, ҳадемай ука-ларинг ҳам қанотимга киришади. Колхозда ишлаганинг косаси оқа-рармиди? Ўзинг кўриб турибсан. Сен олий маълумотли бўлсанг, яримта номимиз бутун бўлиб қо-лармиди, деяпманда ўғлим. Насиб қилса, келажақда оилали бўлсанг, ҳаётинг ҳам тўқис бўлади.

Тошпўлат онасининг розилиги-

этиборига тушади. Уни жамоа ҳўжалигининг масъулиятли ла-возимига ишга таклиф этишди. Тошпўлат ўзининг шижоати, си-дқидилдан ҳизмат қилишини кўрсатди. Ёш ҳизматчининг қо-билиятини тўғри баҳолаган ҳў-жалик раҳбарлари 1993 йилда уни ёшлар бригадасига бригадир этиб тайинлашди.

Жамоа билан ишлашда анча тажриба орттирган Тошпўлат ти-нимсиз меҳнат қилар, янги лойиҳа-ларни амалга оширар эди.

Ўзбекистон мустақилликка эришган, шўро давлатининг кол-хозлари тугатилиб, фермер ҳўжа-ликлари ташкил этила бошлади.

бахор келиши билан ўсиб барқ урарди. Иккинчи даладаги гўзалар ҳам яхши ўсарди.

Шундай қилиб, дастлабки йил-да ҳар гектар бугдойдан 35-40 центнердан ҳосил кўтариб, дав-лат режасини ортиги билан бажар-ишди. Пахтадан ҳам ўша даврга мос ҳосил олиб, давлатга сотил-ди. Режани биринчилардан бўлиб, ортиги билан бажаргани учун яна кўшимча ер ажратилди. Бундан, айниқса Қурбоной опанинг боши осмонга етди.

2005 йилда “Истиклол” фермер ҳўжалиги дала майдонига 90 гек-тар сувли ер қўшиб берилди. Уму-ман, ғалла экиладиган ери 100 гек-тарни ташкил қилиб, пахтazorлар 110 гектарга кенгайди. Пахта хо-сили ҳам гектарига 40 центнердан ошиб кетди. Ғалладан ҳам гекта-рига 60 центнердан ортиқ хирмон кўтарилди. Бу ўсиш Тошпўлатнинг ғайратига-ғайрат қўшди.

Берилган имкониятлардан ўз вақтида самарали фойдаланган «Истиклол» фермер ҳўжалиги кейинги йилларда ҳам ривожлан-иб бормоқда. Ҳўжалик таркибиде шудгор қиладиган занжирли “Ол-той” трактори, комбайн, иккита юк машинаси, уч дона культивация қиладиган МТЗ трактори ва иккита Германиядан келтирилган трактор мавжуд.

Бугун “Истиклол” фермер ҳў-жалиги дон етиштиришда, пахта ҳосилини юқори даражага кўта-ришда ва қишлоқ ҳўжалигининг бошқа соҳалари ривожига ҳам ўзининг муносиб ҳиссасини қўшиб келмоқда.

Ҳа, азиялар ҳаёт доим ҳам биз ўйлагандек, бир зайлда ўтавермайди. Бу умр йўллари-нинг баъзан текис, баъзида эса, ўнқир-чўнқир сўқмоқлари бўлади. Инсон ана шу сўқмоқ оралаб бо-раркан, ҳаётнинг аччиғини ҳам, тотли дамларини ҳам, шодлиғи қувончларини ҳам бошидан ўт-казади. Биз ҳикоя қилган оила аъзолари ҳам сабр, тинимсиз меҳнат ва шўқроналик ҳисси бил-лан шу кунларга етишди.

**Барот ИСРОИЛ**  
Оҳангарон тумани

# ПЎЛАТДЕК ТОБЛАНГАН ШИЖОАТ

бўлмасин, дея эр-хотин даладан бери келмасди.

Энди эса, рўзгорнинг бор ташвиши, тўрт боланинг томоқ-ямоғи Қурбонойнинг нозик елка-ларига тушди. У энди аёл боши билан ҳам ота, ҳам она бўлиб, фарзандларини воёга етказиши керак...

“Инсоннинг исми унинг қисма-тини белгилайди”, деган гап бор. Қурбоной ҳам ўша кундан буён қорақўзларининг бировдан кам бўлмаслиги учун бор умрини қур-бон қилди. Жонини аямай, ўзини эрта-ю кеч меҳнатга урди. Ҳали экин чопигими, бугдой ўрнимими, сомон тўплашми, пахтани яга-налаш, ҳосилни нобуд қилмай теришми, хуллас нима иш бўлса қилар, ҳатто эридан қолган тра-кторни ҳам тириллатиб, далага шошарди.

Қурбоной суяги меҳнатда қот-ган эмасми, сира ҳам ишдан қоч-масди. У болалик дамларини хо-тирларкан, айни ўйнаб-қуладиган онлари уруш тугаган қаҳатчилик йилларига тўғри келганини эслаб, ичи эзиларди.

Уч ўғилдан кейин узоқ қутилган қиз фарзанд бўлгани учун отаси Мусотой ака у туғилганда қувончи

таранглашган, уруш мамлакатнинг ҳам, халқнинг ҳам тинка-мадорини қуритган эди. Тирикчилик тошдан қаттиқ замонлар. Тошсойга ўшча-ган чекка қишлоқларда аҳолининг қорни ҳатто нонга тўймай, бир амаллаб кун кўришарди.

Тошсой қишлоғи Чотқол ва Ку-раматогэ этагидаги қир-адирларда жойлашгани сабабли у ерлик аҳо-ли эрта баҳорда лалми бугдой, арпа, нўхат экиш билан бира қорвадорлик билан ҳам шуғуллан-нарди.

Кўпгина тошсойликлар тур-муш қийинчиликлари деб Бағиш қишлоғи томонлардаги “Север-ный маяк” номли колхозга кўчиб ўтишади. Улар орасида Мусо-той ака ва унинг оиласи ҳам бор эди. Бағиш қишлоғи сувли жой ҳисобланиб, у ерларда пахта етиштириш мумкин эди. Пахта майдонларини кенгайтириш учун ён-атрофдаги тўқайлар ёнидан зовур-ариқлар қавланиши керак. Ўт ва ғумай босиб ётган чака-лакзорнинг захини қочириш жуда қийин иш бўлиб, уларни қавлаш-га Тошсойдан кўчириб келин-ган бакувват йигитлар ва қизлар жалб этилган.

Оддий кетмон ва белкурак би-

белаб, алла айтаркан, эркалаб “Бошинг тошдек, ироданг пўлат-дек мустаҳкам бўлсин ўғлим!” дея хиргойи қиларди. Бу аллани ҳар қуни такрорлайвергач, “тош” ва “пўлат” сўзи бирлашиб, Тош-пўлатга айланиб кетади. Шу-шу эндигина атак-чечак қилиб қадам босган болакайни Фарход эмас, Тошпўлат дея чақира бошлайди-лар.

Орадан вақтлар ўтиб, Қурбо-ной яна икки ўғил — Бекпўлат ва Акмалбекни дунёга келтирди. Кенжатоилари Дониёр туғилгани-дан тўрт ой ўтгач эса, Юсуфназар оламдан ўтади. Тирикчилик де-ганлари зўрга ўтиб тургани боис, турмуш кечириш янада қийин-лашиб борарди. Қурбонойнинг бахтига фарзандлари ақлли-хуш-ли бўлиб воёга етди. Тўнғич ўғли Тошпўлат балоғат ёшига етгач, анча ишни қўлидан олди. Ҳар қуни мактабдан келиб, онасига қарашар, томорқадаги экин-ти-кенга қараар, ўт босган ерларни ўрар, экиларни сугорар эди. Буни кўрган Қурбоной ич-ичидан севинарди.

1984 йилда Тошпўлат ўрта мак-табни битиргач, онаси ўғлини ёни-га чақириб: “Ўғлим, сен ҳам катта йигит бўлиб қолдинг. Даланинг иши сира битмайди. Бу билан ёш



ни олиб, Тошкент шахридаги Те-мир йўллар муҳандислиги инсти-тутининг механик-муҳандислик йўналишига ўқишга кирди.

Орадан бироз вақт ўтгач, ёш талабанинг ғайрати, шижоатини кўриб, Тошпўлатни тепловоз заво-дига ишга таклиф қилишди. Бун-дан Қурбоной опанинг кўнгли тоғ-дек кўтарилди. Тошпўлат ҳам ўқиб, ҳам ишлаб, онасига ёрдам бериб турди.

1991 йил. Тошпўлат инсти-тутни тамомлаб, яна Бағиш қи-шлоғига қайтди. Олий маълумот-ли ёш муҳандис “Северный маяк” жамоа ҳўжалигининг раҳбарлари

Суяги далада қотган эмасми, Тош-пўлат ҳам бу имкониятдан унумли фойдаланиб, фермер бўлишга қа-рор қилди.

2000-йилларнинг бошида Тош-пўлат “Истиклол” фермер ҳўжали-гига асос солди. Ҳўжаликнинг 112 гектар сувли ер майдони бўлиб, унинг 52 гектари пахтага ажра-тилган, 60 гектари эса, бугдойга мослаштирилган эди.

Дастлабки йилларда ака-ука-лар бирлашиб, кеча-ю кундуз ти-ним билмай гоҳ бугдойзорда, гоҳ пахтazorда меҳнат қилишди. Шу зайлда кунлар, ҳафталар, ойлар ўтиб, далаларга сочилган донлар

## ▼ Тошкент воҳаси: афсона ва ҳақиқат

Ўзбекистон Фанлар академияси ва Янги Ўзбекистон универ-ситети ҳамкорлигида оммавий ахборот воситалари вакиллари ҳамда университет талабалари учун амалий сафар – пресс-тур ташкил этилди.

## ҚАЗИЛМАЛАР ҚАНДАЙ СИРЛАРНИ ОЧМОҚДА?



Унда қатнашчилар Тошкент вилоятида жойлашган бир қатор тарихий ва археоло-гик ёдгорликлар, хусусан, Пискент туманидаги Қорихона, Оҳангарон туманидаги Тункат ва Суюрлители ёдгорликларида олиб борилаётган археологик тадқиқотлар жараёни билан яқиндан танишиш имкони-га эга бўлилар.

Дастлаб журналистлар Олмалиқ кон-металлургия комбинати маданият са-ройининг фаолияти билан танишишди. Маданият саройида иккита музей жой-лашган бўлиб, биттасида Тункат ва Суюр-лители археологик ёдгорликларидан то-пилган осориатқалар жамланган.

Сунг XVI асрга тегишли Қорихона археологик ёдгорлиги таништирилди. Ушбу ёдгорлик — Қурама тизмасининг шимолий қисмидаги Олмалиқ шаҳридан жанубий-шарққа қараб кетадиган 26 км. масофада (Қовулди қони қянмида). Нанай-сойнинг чап қирғоғида жойлашган. Унда ўн опти метр баландликдаги дўнгликнинг ичи ййилиб, уч қаватли ҳолда 18 та ҳўжра ҳозирланган. Ҳар бир қаватнинг ўртаси ўн метрли хоналараро хизмат қилувчи йўлак, икки ёнда эса учтадан ҳўжра мав-

жуд. Қаватлар орасида оддий соз тупроқ зинага айлантирилган. Шимол томондан биринчи қаватга кираверишдаги дастлаб-ки чап ҳўжрада Эшмат Ҳожиҳон эшоннинг жасади қўмилган. 1934 йилда профессор М.Е.Массон томонидан ўрганилган ушбу иншоотнинг ҳайратланарли жиҳати шунки, унда бирорта ёғоч, ғишт, тош, гувала ёки лой ишлатилмаган.

Тункат Оҳангарон туманида жойлаш-ган сўнги антик ва илк ўрта асрлар (IV-XII) га тегишли манзил ҳисобланади. Денгиз сатҳидан баландлиги 607 м.да жойлаш-ган, майдони эса 180 Га тенг.

Шаҳар Оҳангарон водийсининг қадимги ва ўрта асрларда маъдан ишлаб чиқариш тармоқлари юксак даражада ривожланган иқтисодий-ҳўжалик, саноат маркази ҳисобланган. Тункат тоғ саноати, яъни қора ва рангли металл хом ашёси ишлаб чиқаришга ихтисослашган марказий шаҳардир.

2024 йилда топиб ўрганилган Тункат ёд-горлигининг шаҳристон қисмидаги устахо-на ўрнида жорий йил май ойида тадқиқот-лар олиб борилиб, деҳқони Муҳаммад ибн Мансур фармонида кўра зарб этилган мис



танга аниқланган. XII асрга тегишли бу танга Тункатда ўша даврларда зарбхона мавжуд бўлганлигини тасдиқлайди.

Суюрлители ёдгорлиги эса Оҳангарон туманининг Қорабўлоқ қишлоғида жой-лашган. У Илоқ мулкчилигининг муҳим шаҳарларидан бири ҳисобланиб, сўнги антик, илк ва ўрта асрлар даврига оид ёдгорлик (IV-XII)дир. Денгиз сатҳидан ба-ландлиги 752 м.да жойлашган. 1960 йил-да академик Й.Ф.Буряков томонидан қайд этилган Суюрлителанинг номи Севилтепа ёки Мунчоқтепа шаклида тилга олинди.

Мазкур ёдгорлик худудининг катталиги жиҳатидан Тошкент воҳасининг Қанқа (Харашкет) (160 Га), Тункат (120 Га), Банокат (Шохруҳия) шаҳарларидан кейинги ўрин-ларда туради. Суюрлитепе ёдгорлигида шаҳарга хос барча элементлар мавжуд бўлган. Мисол учун вағнзе (диний ҳокими-ят) мулки, арк (арқи аъло, қўхандиз), аҳо-ли тураржойлари — шаҳристон, шаҳарнинг ташқи қисмида — рабoт ҳамда шаҳар қа-бристонлари аниқланган.

2022–2023 йилларда Ўзбекистон Фанлар академияси Миллий археоло-гия маркази ва Тарих институти илмий

ходимларидан иборат жамоа томони-дан ёдгорлиқнинг бир нечта нўқталари-да қазилма ишлари амалга оширилган. Суюрлитепе аркидан шимоли-ғарбда, ибодатхона мулкига тегишли деб тахмин қилинган нисбатан баландроқ тепалик-лардан бири очиб ўрганилиб, бу ер илк ўрта аср зодагонларидан бирига тегиш-ли қаср ўрни эканлиги маълум бўлган. Бундан ташқари, шаҳарнинг ички ва сув йўллари, шаҳар шаклланишидан олдин-роққа тегишли ярим ертўлалардан иборат тураржойлар, 3 хил давр, турдаги қабр-лар очиб, тадқиқ этилган. Натижада Қанг давлати, Турк хоқонлиги, араблар босқини, сомониёлар, қорахонийлар ва мўғул-лар бошқаруви даврига оид бой ашёлар, тангалар, сопол идишлар, камон ўқининг учлари, шиша идишлар, турли хил тақин-чоқлар, суяқдан қилинган тароқлар ва бошқа кўплаб тарихий бўюмлар топилган.

Кейинги тадқиқотлар эса шаҳар ҳуду-дидаги ҳаёт милодий III – IV асрлардан токи XIII аср бошларига қадар давом эт-ганлигини кўрсатади. Ёдгорлик Шош-Илоқ худудидаги шаҳарларнинг шаклланиши ва ривожланиш суратини ўрганишда муҳим манба бўлиб хизмат қилади.

Ушбу қизиқарли тарихий маълумотлар

пресс-тур иштирокиларида катта таас-сурот қолдирди. Саёҳат иштирокиларга

нафақат илмий тадқиқот жараёнини куза-тиш, балки бевосита археологлар ва мута-хассислар билан мулоқот қилиш, тарихий

объектлар ҳақида ўрганиш ва амалий би-лимга эга бўлиш имконини берди.

Фанлар академияси ва Янги Ўзбекис-тон университети томонидан ташкил

этилган ушбу ташаббус тарихий меросни сақлаш ва оммалаштириш, ёшларнинг

илмга бўлган қизиқишини оширишга хиз-мат қилади.

ЎЗА

## ▼ Ёълон

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi PQ-14-sonli qarori bilan “Cyber University” davlat universiteti tashkil etildi. Ushbu qarorning 12-bandiga muvofiq Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filialining Toshkent viloyati, Nurafshon shahri, “Yangiobod” MFY, Yangiobod ko'chasi, 42-uy manzilida joylashgan bino va inshootlarini tutash hududlari bilan birgalikda operativ boshqaruv huquqi asosida “Cyber University” davlat universitetiga o'tkazib berish ko'zda tutilgan. Shuningdek, 20-bandiga ko'ra Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Nurafshon filiali faoliyatini 2024/2025-o'quv yili yakunlanganidan so'ng tugatish belgilangan.**

**Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-maydagi “Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Nurafshon filiali faoliyatini tugatish to'g'risida”gi 333-son qarori va O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 3-iyundagi 2/130-son buyrug'i hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 2025-yil 30-iyundagi 796-01-son buyruqlari bilan tugatish choralari ko'rish topshiriqlari berilgan.**

## ▼ Bolalar yozi – 2025

Yozgi ta'til paytida ko'plab ota-onalar: "Farzandim vaqtini qaysi joyda mazmunli va foydali o'tkazishi mumkin", degan savolga duch kelishadi. Buning yechimi juda oson – Bekobod shahrida joylashgan «Sohil» bolalar sog'lomlashtirish oromgohi xuddi shunday maskan. Hozirda ushbu oromgohda metallurglarning 150 nafar farzandi maroqli hordiq chiqarmoqda.



# Ham maroqli, ham mazmunli



«O'zmetkombinat» Ajga qarashli oromgohda bolalar uchun barcha qulayliklar yaratilgan: shinam xonalar, dam olish hududlari, sanitar talablarga javob beradigan besh mahal sifatli ovqatlanish, shuningdek, katta sahna. Har kuni kechki ovqatdan so'ng bolalar uchun kinofilmlar namoyishi va diskotekalar tashkil qilinadi.

Barcha ishlar kombinat kasaba uyushma qo'mitasi raisi Elzara Veliullayeva boshchiligidagi bolalarning jismoniy, ijodiy va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan holda tashkil etilgan.

Oromgohda 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning xavfsizligi tajribali

tarbiyachilar va o'qituvchilar tomonidan tun-u kun nazorat qilinadi. Ular bolalarga dam olish bilan birga shaxs sifatida rivojlanishlariga yordam berishadi.

– Oromgohimizda har bir bola o'zi qiziqqan mashg'ulot bilan shug'ullanishi uchun

sharoit yaratilgan, – deydi tarbiyachi Dilorom Iskan-darova. – Shu maqsadda qo'l mehnati, tasviriy san'at, musiqa, raqs, kompyuter savodxonligi, ingliz tili, shaxmat va shaxsha to'garaklari faoliyat yuritmoqda. Kitob o'qishni xush ko'ruvchilar



uchun kutubxona ham mavjud. Jismoniy faollik va sportga katta e'tibor qaratilgan. Har kuni harakatli o'yinlar, estafetalar va musobaqalar tashkil etiladi. Bu orqali bolalarning sog'lig'i mustahkamlanadi va g'alabaga bo'lgan irodasi shakllanadi.

– Oromgohning asosiy afzalliklaridan biri – bu yangilangan suzish havzasi bo'ldi, – deydi kombinat kasaba uyushma qo'mitasining tijorat direktori Maxtumqul Sattorov. – U zamonaviy filtr tizimi bilan jihozlangan bo'lib, bolalar toza suvda malakali instruktorlar kuzatuvda suzish imkoniga ega. Shuningdek, ichimlik suvini tozalash uchun yangi tizim ham o'rnatilgan.

– Oromgoh menga juda yoqdi, – deydi 12 yoshli Behruz Abdullalov. – Bu yerda yangi do'stlar orttirdim. Ular bilan har daqiqamiz mazmunli va maroqli o'tmoqda.

**Komila HAKIMOVA,**  
oromgoh direktori

## Китобхона ошно қалблар

Паркент Ахборот-кутубхона марказида 11-сонли "Наврўз" давлат мактабгача таълим ташкилоти 1-тайёрлов гуруҳи тарбияланувчилари ва "Чўққайма" маҳалласидаги 39-мактаб ўқувчилари учун "Паркент тонги" газетаси тахририяти билан ҳамкорликда янги адабиётлар тақдими тоғига бағишланган тадбир ташкил этилди.

Тадбирда ўқувчиларга Ахборот-кутубхона маркази фондида китобхоналар сўровлари, буюртмалари асосида келиб тушган 254 номдаги 1 минг 220 нусха китоб таништирилди. Улар орасида машхур ёзувчиларнинг янги асарлари, ёшлар ва болалар учун мўлжалланган китоблар, турли луғатлар, педагогик,



Тадбирдан мақсад ўқувчиларни кутубхонадаги янги адабиётлар билан таништириш, китобхонлик маданиятини ривожлантириш, адабий, илмий ва бадий манбаларни тарғиб қилишдан иборат бўлди.

Шу кунги Ахборот-кутубхона марказида янги китоблар кўргазмаси ҳам ташкил этилди. Унда муаллиф ва таржимонлар, янги асарлар ҳақида қисқача маълумотлар, асарлардан иқтибослар келтирилди. Фаол китобхонлар иштирокида савол-жавоб ва ўзаро фикр алмашилди.

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада)

методик қўлланмалар, шунингдек, хорижий ёзувчиларнинг таржима асарлари, жаҳон адабиётининг энг сўнгги намуналари бор.

Тадбирнинг бадий қисмида боғча тарбияланувчилари ёд олган шеърларини ўқиди, рақсга тушишди. Айниқса, вилоят мақом ансамбли соҳнада Умида Эргашеванинг дуторда ижро этган куйлари тадбирга ўзгача файз киритди.

Яқунда боғча тарбияланувчилари ва ўқувчиларга китоблар совға қилинди.

**Зилола БЕГАЛИЕВА,**  
Ахборот-кутубхона маркази раҳбари



**TOSHKENT HAQIQATI**  
**ТАШКЕНТСКАЯ ПРАВДА**

Muassis:

**TOSHKENT**  
**VILOYATI**  
**HOKIMLIGI**



"Toshkent haqiqati" va  
"Tashkentskaya pravda"  
gazetalari tahrir hay'ati:

**Zoyir MIRZAYEV**  
(tahrir hay'ati raisi)

**Abdusamad NOSIROV**

**Ummat MIRZAQULOV**

**Hotamjon SAYDAHMEDOV**

**G'afurjon MUHAMEDOV**

**Sayyora FAYZIYEVA**

**Tohir ARIPOV**

**Mahmud TOIR**

**Azamot MIRZAYEV**

**Uskenboy ATEMOV**

**Abdulla XURSANOV**

**Shahboz NIZOMIDDINOV**

**Kumush EGAMBERDIYEVA**

**Olimjon BEGALIYEV**

**Behzod QOBULOV**

**Sergey MUTIN**

Bosh muharrir:

**G'ayrat SHERALIYEV**

Qabulxona:  
(55) 520-64-95

Bosh muharrir o'rinbosari:

(55) 520-04-10

Mas'ul kotib:

(55) 520-05-10

Bo'lim muharrirlari:

(55) 520-06-20, (55) 520-04-20

E'lonlar va hisob-kitob bo'limi:

(55) 520-21-20

e-mail: toshkenthqiqati@mail.uz

Nashr uchun mas'ul:

**Kumush EGAMBERDIYEVA**

Navbatchi:

**Nozima RASULOVA**

Ekspeditor:

**Behruz NURBOBOYEV**

Bosishga topshirish vaqti – 21.00.

Bosishga topshirildi – 19.20.

Nashr ko'rsatkichi – 205.

Buyurtma G-735.

3 050 nusxada chop etildi.

Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida

bosildi. Qog'oz bichimi A–2.

Bahosi kelishilgan narxda.

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy

kommunikatsiyalar boshqarmasida

2011-yil 12-yanvarda

03-001 raqami bilan

ro'yxatga olingan.

Manzil:

111500, Nurafshon shahri,

Toshkent yo'li ko'chasi, 90.

Toshkent shahridagi

ofisimiz: Bektemir tumani,

Ittifoq ko'chasi, 2.

ISSN 2010-9318.

Gazeta «Toshkent haqiqati»

tahririyati kompyuter markazida

terildi va Tohir Mahmudxo'jayev

tomonidan sahifalandi.

Haftaning

chorshanba va shanba

kunlari chiqadi.

«SHARQ» nashriyot-matbaa

aksiyadorlik kompaniyasi

bosmaxonasida bosildi.

Korxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

## ▼ Чоршанба фелъетони

**Баъзи одамларга ҳайронсан, адолат йўқ, ҳақиқат қолмади, деб нолиганлари-но-лиган. Шундайми? Йўқ, ундай эмас. Адолат бор! Адолат учун курашиш зарур ва ўшандагина кўзлаган ниятингизга эришасиз.**

**Оҳангаронлик Фаррух Муталов ҳақиқат борлигига ишонган ва ниятига эришган мана шундай инсонлардан бири.**

**Фаррухни яхши танийман. У мен туғилиб ўсган сўлим Қорахитой қишлоғида дунёга келган. Падали бузруквори Мўмин Муталов мактабда адабиёт муаллими бўлиб ишлар, яхшигина шоир ҳам эди. Ута хоксор ва ҳақиқатпарвар домламиндан нафақат мактабда, қолаверса, қишлоқда ҳам айрим "сохта сумбат"лар ёмон чўчирди.**

Фаррух ҳам отаси каби бир сўзли йигит. У ўн тўққиз ёшидаёқ Ангрен иссиқлик электр станциясига чи-ланган бўлиб ишга кирган эди. Бир йилдан сўнг ҳарбий хизматга чақиришди. Ҳарбий хизматдан сўнг Россиянинг Нижний Новгород шаҳридаги педагогика институтида тахсил олиб, рус тили муаллими дипломи эгаси бўлди. Бор-йўғи бир йилгина ўзи ўқиган Қорахитой қишлоғидаги умумтаълим мактабида ўқитувчилик қилди. Тўғри, ўша даврда болалар билан ишлаш, беғубор қалб эгаларига сабоқ бериш ҳам завқли, ҳам савобли эканини у дилдан ҳис этар эди. Аммо негадир уни бу ишлар ҳам қаноатлантирмасди. Шу боисдан бўлса керак, у катталар даврасига қайтишга қарор қилди ва яна Ангрен иссиқлик электр станциясига узоқ йиллар турли лавозимларда самарали меҳнат қилди.

2013 йилдан бошлаб, у корхонада ходимлар бўлими бошлиғи бўлиб ишлаб келаётганди. Таниқли ташкилотнинг биринчи раҳбарлари Фаррухни камтарлиги, билимдонлиги ва қатъиятчилиги учун ҳурмат қилишарди.

Фаррух Муталов 2016 йилда Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг 25 йиллиги, 2023 йилда эса "Энергетика фахрийси" кўкрак нишонларига мушарраф бўлди.

Бироқ, баъзи бир раҳбарлар тўғри сўзли, ўз фикрига эга инсонларни ёқтирмас эканлар. 2023 йил апрелида станцияга Мирзафёруз Ниғматов раҳбар бўлиб келди. У ҳамма жойда менинг айтганим бўлади, мен хоҳлаган одамим билан ишлайман дейдиган ва танқиддан унча ҳуши йўқ тоифадан экан, чоғи.

Директор ҳузуридаги кенгашларда баъзан Фаррух ташкилотда меҳнат қонунчилиги талаби бузилаётганини гапириб, унинг кўзига ёмон кўри-ниб қолди.

Шу-шу раҳбар ходимлар бўлими бошлиғидан кутулиш йўллариини из-лай бошлади.

Ишдан бўшатишдан олдин хо-

шимга рухсат бермаслигини маълум қилди. Бошим қотди. Ҳолбуки, пенсияга 2025 йилнинг 6 декабри-да чиқишим керак. Мени бу ёшда ҳеч ким ишга қабул қилмайди. Мен ариза ёзишдан бош тортдим. Ҳолат тўғрисида Ангрен шаҳар прокуро-ри ва меҳнат ҳуқуқи инспекциясига ўша куниёқ маълум қилдим. Кейин

# Замон ЗҮРНИКИ... эмас

**Ёки кеккайган ва кек сақлайдиганлар учун "МАСТЕР-КЛАСС"**

димни бир-икки маротаба интизо-мий жазога тортса, кейин уни суд ҳам ишга тиклаши амримаҳоллиги-ни юристлар билан гаплашиб билиб олган раҳбар икки марта Муталовни асоссиз интизомий жазога тортди.

Тазйиқлардан чарчаб, асаби таранг бўлган Фаррух 2024 йил 2 октябрдан 14 октябргача давола-нишга мажбур бўлди.

– Бироз соғайиб ишонамга кел-дим, – дейди ўша оғир кунни хотир-лаб Фаррух Муталов. – Хонамининг эшигини очиш учун калит солсам, очилмади. Бошқа кўлф ўрнатиш-ганини сездим. Бу ҳақда директор муювини З. Шоисматовга учрашсам, у менга ўз хоҳишим билан меҳнат шартномасини бекор қилиш тўғри-сида ариза ёзишим зарурлигини ва барибир директор мени иш-ла-

билсам, мени 23 октябрда ишдан бўшатиб қўйишибди. Шунинг учун иш жойимга ки-ритишмабди. Мадад излаб, касабга уюшмаси қўмитаси раисига учрашдим. У эса кўмак беришга ожизлигини айтиб, мени касабга уюш-маси қўмитаси мажлисига чақирди. Билсам, раҳбар касабга уюшмаси қўмита-сига тақдимнома киритиб, меҳнат шартномасини бе-кор қилишга розилик бери-шини сўраган экан. Касабга уюшмаси қўмитаси аъзола-ри менинг иддаоларимга эъ-тибор бермади.

Шундан сўнг Фаррух Муталов Ангрен иссиқлик электр станцияси директорининг 2024 йил 23 октяб-



римиз кек сақламаса керак, деган оғизгина бир ишончим ҳам бор эди. Буёғига биргаликда қўлни-қўлга бе-риб ишлаймиз деган умидда эдим.

Бироқ бундай бўлмади. Фар-

Оҳангарон туманлар-аро фуқаролик судининг 2025 йил 3 апрелдаги ҳал қилув қарорини ўз-гаришсиз қолдирди.

Ангрен иссиқлик электр станцияси дав-лат назоратидаги корхо-на ҳисобланади. Ҳолбу-ки, Меҳнат кодексига риоя қилиш мулкчилик шаклидан қатъи назар барча ташкилотлар учун мажбурийдир.

Нима ҳам дердик, за-мон зўравонлики деган даврлар ўтибди. Буни мансабдорлар ҳам тушуниб қўйса-лар, фойдадан холи бўлмас эди.

**Озод ХУШНАЗАРЗОДА,**  
журналист